

**SHAXSNI TAVSIFLOVCHI NOMINATIV BIRLIK VA NUTQIY VARIANTLILIK***Xojiyeva Maxfirat Yusupovna*

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Nominativ birlik sirasiga kiruvchi soʻz va soʻz birikmasida shaxs nomlarining ifodalanish imkoniyatlari, soʻz birikmasida soʻzga nisbatan konkretlashgan maʼno reallashishi xususida fikr yuritiladi.*

Kalit soʻzlar: *Til, lison, nominativ birlik, lisoniy sintaktik qolip.*

Barcha zamonlarda ham ilm-fan va yutuqlari asosida intellektual salohiyatning yuksalib borishi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan hisoblangan. Biz yashayotgan globallashuv davrida bu jihatning muhimlik darajasi yanada ortganligi ijtimoiy hayotimizning har bir jabhasida sezilib turadi. Taʼlim sohasida mazkur masalaning qay darajada muhimligini mustaqil taraqqiyot yoʻlini tanlagan mamlakatimizning uzluksiz taʼlim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga koʻtarish, taʼlimning har bir jabhasida natija bera oladigan ilgʻor pedagogik hamda axborot texnologiyalarini joriy qilish, taʼlim samaradorligini jahon standartlari darajasiga yetkazish masalalari davlat siyosati darajasiga koʻtarilganligi bilan ham izohlash mumkin. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹.

Oʻzbek tilida til egalarining nutqiy faoliyatida shaxsning muayyan xususiyatlarini tavsiflovchi soʻz birikmalari shaxs tushunchasini ifodalovchi nominativ birliklar sirasida tilning lisoniy sintaktik imkoniyatlarini voqelashtiradi. Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi (SB) sintaksisi turli ilmiy yondashuvlarda tadqiq etilgan, soʻz birikmasi tarkibi va tuzilishi, uning hosil boʻlishi va turlari oʻrganilgan boʻlishiga qaramay, soʻz birikmasi maʼnaviy tiplari alohida ajratilmagan. Muhimi shundaki, nutqda SB ifodalovchi maʼnaviy tiplar orasida shaxs tavsifiga xizmat qiladigan turi mavjudligi qayd etilmagan. Holbuki, jamiyat mavjudligi va uning taraqqiyotini belgilovchi shaxs tushunchasi ilmiy kategoriya sifatida talqin etilayotgan jahon fanida antropologik yondashuv ilmiy tahlilda muhim oʻrinni egallab boʻlgan. XXI asr lingvistikasida inson omili ilmiy paradigma markazini ishgʻol etib, antropolingvistik taʼlimotlarda lingvistik shaxs kategoriyasiga aylangan davrda oʻzbek tilida shaxsni tavsiflovchi SBlarining lisoniy qurilishini fanimizda shakllangan substansial sintaksis nazariyasi va antropolingvistik paradigmada tahlil qilinishi va amaliy natijalarini oʻrganish ijtimoiy zaruriyatdir. Zero, oʻzbek tilshunosligida til birliklari, jumladan, SBlarining substansial tadqiqi natijalarini nutq lingvistikasi nuqtai nazaridan baholash, lisoniy sintaktik imkoniyatlarni tildan foydalanuvchi nutqiy faoliyatida voqelanishini til, shaxs va jamiyat munosabatlari negizida sotsial va pragmatik jihatdan tahlil qilish hamda innovatsion metodlardan foydalanib dars jarayoniga tatbiq etishga ehtiyoj mavjud. Shunga koʻra, oʻzbek tili shaxs tavsifi berilgan SBlarining substansial va sotsiopragmatik aspektlardagi tadqiqi dolzarb boʻlib, fanimizda sintaktik birliklarning zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqi muammolarini echishga imkon beradi va amaliyotda turli metodlar orqali oʻrganishni taqazo etadi.

¹Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Тошкент: Ўзбекистон, 2016.



O'zbek tilshunosligida til, shaxs, jamiyat uchligida asosiy o'rin egallaydigan til tushunchasi hodisasi turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan va buning natijasi o'laroq o'zbek formal grammatikasi, o'zbek substansial tilshunosligi, mazmuniy tilshunoslik kabi yo'nalishlar shakllangan, mazkur ilmiy yo'nalishlarning har birida til o'ziga xos tadqiq usullari va metodologiya asosida talqin etilgan. Shunga qaramay, bugun tilning shaxs va jamiyatga xizmat qilishini so'zlovchi(tildan foydalanuvchi)ning turli nutqiy ehtiyojlarini qondirish vositasi, shuningdek, lisoniy mavjud imkoniyatlar manbasi sifatida individual hamda ijtimoiy kommunikativ vazifa bajarishi bilan bog'liq masalalar o'z yechimini kutmoqda.

O'zbek tilida so'zlashuvchilar nutqida voqelashadigan *ko'sa surnaychi, qassob yigit, politsiya boshlig'i, choyxonachi bola, afg'on amiri, rus kampir, qozoq chol, lo'li qiz, sirdosh dugona, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, qo'shni usta* kabi so'z birikmalari shaxs otlarining o'zaro birikuvidan yoki muayyan sintaktik vaziyatni egallashidan hosil bo'ladi.

Tilimizdagi *ko'sa surnaychi, qassob yigit, politsiya boshlig'i, choyxonachi bola, afg'on amiri, rus kampir, qozoq chol, lo'li qiz, sirdosh dugona, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, qo'shni usta* (v.h.) singari so'z birikmalarida shaxs tavsifi nomlari tobe bo'lak va hokim bo'lak lug'aviy asoslarini tashkil etadi. Sanab o'tilgan so'z birikmalarining barcha ko'rinishlarida shaxs nomlari xoh tobe vaziyatda bo'lsin, xoh hokim vaziyatda bo'lsin, baribir, shaxsning u yoki bu xususiyatini tavsiflab keladi. Shunga ko'ra, bunday birikmalar shaxsni tasiflovchi so'z birikmalari sifatida alohida ma'noviy tipni hosil qiladi. Bu ma'noviy tipni shakllantiruvchi so'z birikmalari tarkibida shaxs tavsifini anglatuvchi qanday leksemalar reallashishini aniqlash lozim. Negaki, bu sintaktik sathda shaxsni tavsiflovchi birikmalar ma'noviy tipining ajratilishiga sabab bo'ladigan lisoniy leksik-semantik imkoniyatlarni belgilash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Quyidagi misollarda shaxsni vazifa semansini reallashtiruvchi birikmalarning gap tarkibidagi mavqeyiga e'tibor qaratilgan.

- *Nima uchundir karnay-surnayning ovozi avvalgidek shaxdam emas,viqillab chiqar edi. Pufalay berib lunji pufakdek shishib ketgan keksa ko'sa surnaychi "g'iyq"etib surnayni to'xtatdi-da, yelkasidagi ro'molni olib og'zini, linjini artdi.[1;110]*
- *O'ttiz yoshlar chamasidagi qora to'ridan kelgan yag'rindor bir qassob yigit kela bir kalla urib, orqasiga charxpalak qilib yiqitdi. "Ur, nomard qo'shmachini!" degan ovoz ham mayoqdan ko'tarildi.[1;113]*
- *Mirshablar Hojining o'ligini mayiz saroyga olib kirib, ustiga bo'yra tashlab qo'ydilar. Politsiya boshlig'i Machalov va uning yugurdaklari qancha izg'isalar ham Rahmat hojining aniq qotilini, biror guvohini topolmadim.[1;117]*
- *Bular bir tiyin, ikki tiyin, besh tiyinning yuziga qaramay, choysiga, nonga, o'z cho'ntagimga qaytarib olar edim. Bundan tashqari, oshdan, sho'rvadan, qolgan ovqatlardan "choyxonachi bolaga", ya'ni menga nasiba atar edilar.[1;127]*
- *Ana Safiya masjidiga namoz juma o'qigani kelganlari. Izvoshning oldiga gadoylar sadaqa so'rab o'rab olib turibdi. Mana bu Afg'on amiri Sulon Abdurahmon[1;134].*

O'z navbatida, shaxs nomlari o'zaro birikib, *ko'sa surnaychi, qassob yigit, politsiya boshlig'i, choyxonachi bola, afg'on amiri, rus kampir, qozoq chol, lo'li qiz, sirdosh dugona, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, qo'shni usta* singari ko'plab so'z birikmalarini hosil qiladi. Bunday birikmalarning TB va HBlari kasb-hunar nomlaridan tuzilgan. Mazkur so'z birikmalari shaxsni tavsiflovchi birikmalar ichida alohida guruhni tashkil etadi.O'zbek tilida shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG tarkibiga kiruvchi ot leksemalarining o'zaro birikish imkoniyati aynan shunday,ya'ni shaxsning kasbiga ko'ra xususiyatini ifodalovchi so'z birikmalarining yuzaga



kelishiga xizmat qiladi. Bu esa kasb jihatidan shaxsni tavsiflovchi ot leksemalarining leksik-semantik imkoniyatlari kengligiga chuqurroq nazar tashlashga undaydi. Negaki, bu LMG a'zolarining "shaxs tavsifi nomlari" LMTsidagi boshqa LMGLar a'zolari bilan birikish imkoniyatlariga egaligini tasdiqlovchi nutqiy dalillar anchagina. Bu nutqiy birliklarning lison imkoniyatining hosilasi ekanini kuzatish mumkin. Shunday ekan nutqda qo'llangan shaxsni turli xususiyatlariga ko'ra tavsiflovchi so'z birikmalari bir lisoniy qolipga mujassamlashadi va nutqda rang-barang voqelanadi. Yuqorida keltirilgan misollar turli ijtimoiy qatlam vakillari nutqidan olingan, so'zlovchining maqsadi esa nutq qaratilgan shaxs, izohlanayotgan birlik haqida aniq ma'lumotni berish, bu maqsadni ifodalash uchun esa leksik birlik emas, balki sintaktik birlik bo'lgan so'z birikmasiga ehtiyoj sezilganligidir.

Xulosa qilib aytganda, til hodisalarini ro'yobga chiqaruvchi, uning imkoniyatlarini voqelantiruvchi muloqot birligi bu nutqdir. Shunday ekan, lisoniy imkoniyatlarni o'zida qamrab olgan $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ lisoniy sintaktik qolipi nutqda cheksiz hosilalarni voqelantiradi. Bu nutqiy hosilalarda shaxs ruhiy olami hamda ijtimoiy munosabatlaridagi roli, jamiyatning turli bo'g'inlaridagi o'rni qamrab olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.—Тошкент: Ўзбекистон, 2016
2. Назарова С. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. —Т.: Фан, 2015. — Б.112.
3. G`afur G`ulom. Shum bola. —Т.:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. —190 b.
4. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Qarshi :Nasaf, 2005. — 184 b.
5. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? —Т.: Фан, 1978. -75 б.
6. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.
7. Назарова С. Сўз бирикмаси лисоний синтактик қолиплари/Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. — Бухоро, 2016.—№4. —Б.56-59.
8. Nazarova S.A., Xojiyeva M.Yu. Substantial Description of Uzbek Word Combinations // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. United Kingdom. — ISSN: 1475-7192, Volume-24, Issue-1, January 2020. — P. 422-429.<https://www.psychosocial.com/article/PR200146/9312/>
9. Xojiyeva M.Y. Yoqubova Sh.Y. Language and speech expression of personal descriptions . TJE - Tematics journal of Education. -ISSN : 2249-9822. Vol-5-Issue-1- January -2021.